

«Institut ishlab topgan puliga o'zi uchun uskuna sotib ololmaydi» nomli maqola bo'yicha MUNOSABAT

Bugungi kunda Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Biz milliy tiklanishdan milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik". Milliy yuksalishga erishish yo'lidagi muhim omillardan biri, esa albatta, bu ilm-fandir. Shuning uchun ham mamlakatimizda bu soha vakillariga jiddiy g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Qisqa davr ichida, ilm-fanni yangi bosqichga ko'tarishga yo'naltirilgan bir qator muhim amaliy ishlar amalga oshirildi va bular davom etmoqda.

Ma'lumki, 2020-yil yanvar oyidan boshlab Fanlar akademiyasi tashkilotlari bazaviy moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi va u o'z navbatida olimlarning faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda. Bu Davlatimiz Rahbari tomonidan ilm-fanni rivojlantirishga, mamlakatimiz ilmiy jamoalari va olimlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan e'tibordan dalolat beradi.

Kuni kecha kun.uz sayti orqali e'lon qilingan FA Yardo fizikasi instituti direktori I.Sodiqov intervyusida (<https://kun.uz/news/2021/02/09/institut-ishlab-topgan-puliga-ozu-uchun-uskuna-sotib-ololmaydi-yadro-fizik-asi-instituti-direktori>) aytilgan gaplar muxbir tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligi va nashr etilganligi bois ancha bahsli vaziyat vujudga keldi.

Institut direktori so'zida "Hozir byudjet tizimiga o'tgandan keyin muammo yana ham ko'paydi" demagan. Aksincha, muammolar Institutning barcha hisob raqamlari, shu jumladan, nobyudjet hisob raqamlar ham g'aznachilikga o'tkazilgandan keyin paydo bo'ldi, degan.

Institut o'zining nobyudjet mablag'laridan ham o'ziga zarur bo'lgan uskuna va materiallarni sotib olishi qiyinlashgani, hamma narsani birja savdosi orqali sotib olish mavjud muammolarni tez hal qilishga xalaqit qilayotganligi aytilgan.

Byudjetdan ajratilgan mablag'larni mayli nazorat qilinsin, lekin nobyudjet mablag'lardan zarur uskuna va materiallarni sotib olish to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali sotib olinishiga ruxsat berilsa maqsadga muvofiq bo'lishi haqida gapirilgan, ya'ni, Institut direktori faqat nobyudjet mablag'lardan foydalanish to'g'risida gapirgan.

Ushbu maqola yuzasidan kun.uz. muxbiri bilan gaplashib, diktofon yozuvlari eshitib ko'rildi. I.Sodiqov bilan suhbatda byudjet tizimi haqida hech qanaqa gap ketmaganligi va bu intervyudagi anglashilmovchilik muxbir tomonidan noto'g'ri talqin qilish orqali yuzaga kelganligini ma'lum qilamiz. Kun.uz saytidagi tegishli materialga aniqlik kiritilib to'g'irlab qo'yildi.